

Abdulla Sher Ijodida Badiiy G`Oyalar

Sayyora Xaqnazarova

FarDU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola Abdulla Sherning she'rlari va ularning g'oyaviy jihatlari haqida so'z yuritadi. Shoирning asarlari g'oyasi asar mazmuniga singdirilgan bo'llib, mavzular xilma-xilligi g'oyani boyitadi va kitobxon mazmundan g'oyani idrok qilishga imkon beradi. Sherning she'rlari insonni mushohadaga undaydi, fikrlari aniq va falsafiy qarashlari hayotni teranroq anglashga yordam beradi. Maqolada badiiy asarda ifodalangan asosiy fikr "asar g'oyasi" deb atalishi va bu g'oya san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi fikr ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ijodkor, teran nigoh, falsafiy fikrlar, mushohada yuritish, fikrlash, g'oya, mohiyat, mazmun.

Abdulla Sher asarlari g'oyasi asar mazmuniga singdirib yuborilgan, mavzular xilma-xilligi asar g'oyasini yanada boyitib, uni mutolaa qilgan kitobxon mazmundan g'oyani idrok qila oladi. Shoир asarlari insonni mushohadaga undaydi, undagi fikrlar aniqligi, falsafiy qarashlari hayotni yanada teran nigoh bilan anglashga, undagi har bir hodisani chuqur mulohaza qilishga undaydi.

"Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergen bahosi "asarning g'oyasi" deb ataladi. Badiiy asardagi g'oya san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, emotsiyonal obrazli fikrdir. Oddiy g'oyalardan farqli o'laroq, adabiy asardagi g'oya "badiiy g'oya" deb ataladi".¹

Shoir asarlarida ilgari surilgan g'oyalarda ham asosan ana shu jihatlarga alohida e'tibor bergen, bu esa o'z o'rnila adib asarlarining muvaffaqiyatli chiqishiga olib kelgan. Ijodkor g'oya va mazmunni chuqur anglagan holda she'rlar yaratgan.

She'riyat chidamdir, she'riyat — sabot,

Umrga jabrdir, umrga jabr.

She'r - dorda tebrangan eng o'jar hayot,

Eng so'nggi nafasdir har bitta satr.

(“She'riyat”she'ridan.1988)

She'riyat chidam, she'riyat- sabot-metaforik epitet, umrga jabrdir, umrga jabr-poetik ko'chimning takror turlariga kiradi. Shoир she'r mazmunini yaxshiroq, hamda ta'sirchan ifoda etish uchun shunday poetik troplarga murojaat qilgan. Falsafiy mushohadaga yo'g'rilgan ushbu satrlarda she'riyatning nihoyatda mushkul ishligi, unga sabr va chidam bilan munosabatda bo'lish kerakligini, she'r esa shoирning to'xtatib bo'lmas tizginsiz fikrlari majmui ekanini chiroyli ifodalar orqali namoyon etadi. Asardagi xarakterlar tizimi, tuyg'ular silsilasi, insonning barcha kechinmalari shoир ijodining asosiy g'oyasi hisoblanadi.

"G'oya – asarda qo'yilgan va yoritilgan masalalarning mohiyatidan, xarakterlar talqinidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa. Shunga ko'ra, mavzu asar g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi hayotning u yoki bu jihatni haqidagi fikrini o'quvchiga

¹ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 98 .

yetkazmoqchi bo'ladi. Shu fikrni asardagi obrazlar faoliyatiga, qo'yilgan masalalar zamiriga singdirib yuboradi. Kitobxon asarni o'qigach, voqeа-hodisalar talqinidan, xarakterlar mantig'idan g'oyani topib oladi. G'oya asar to'qimasiga qanchalik chuqur singdirib yuborilgan bo'lsa, uning badiiy ta'sirchanligi, emotSIONalligi shunchalik kuchli bo'ladi”².

Koinotda ikki daraxt abadiy mavjud:

Beshik va tobut.

Ular ikkisiga birgina meva bo'lib,

O'rtada talashman goh hud,goh behud:

Men- inson.

Shoir she'rning ta'sirchanlik kuchini oshirish maqsadida kontrast so'zlar-antonimlardan foydalanadi: beshik, tobut; hud, behud kabi. “Meva”- inson obraziga qiyoslanadi, ya'ni meva allegorik obraz bo'lib, uning hayoti beshik va tobut o'rtasida talash, umr o'tkinchi ekanligini ta'kidlaydi. She'rdagi tasvir va g'oya ta'sirchanlikni, hissiyotni oshirgan.

“Shoirlarning eng zo'ri faylasuf shoirlardir, Abdulla Sherning shoirligini bezatadigan ham uning faylasuf shoirligidir. Uning barcha she'rlari mohiyatga borib taqaladi”³.

Abdulla Sher ana shunday faylasuf-shoirlardan hisoblanadi, uning she'rlaridagi falsafiy mushohadalar va yetakchi g'oyalar insonni yashashga o'rgatish va uning ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. Shoir she'rlarida nasihat qilmaydi, balki so'zlar sehri orqali insonni yetuklikka chorlaydi, uning tafakkuri, ruhiy olamini boyitishga harakat qiladi. Kamtarinlik bilan yozilgan satrlar inson ruhiga yengilgina singib ketadi va uni tiriklik deb atalmish dunyo zalvoridan biroz holi qiladi, unga ruhiy yengillik baxsh etadi.

“Shoir ko'zi tushgan narsalarning hammasidan ular qanchalik oddiy, ko'nikilgan bo'lmasin, shunday ranglar, jihatlar va qirralarni topsinki, ular she'riy libosga burkanib, bizning tuyg'ularimizga ta'sir qilsin, qulfi-dilimizni ochsin. Abdulla Sherda mana shunday o'tkir shoirona nigoh bor. U eng oddiy hodisalar zamiridagi she'riy xislatlarni yaxshi payqaydi va she'rga soladi”⁴.

Ijodkor teran nigohi orqali falsafiy fikrlar majmuasini hosil qiladi hamda, mushohada yuritishga, fikrlashga o'rgatadi. Shoir asarlaridagi g'oyani ilg'ab olish qiyin emas, ammo she'rlar mohiyatini, mazmunini chuqur anglash uchun kitobxon biroz ter to'kadi. Chunki, undagi ba'zi detallar so'zlar jamlamasiga yashiringan bo'lib, uni tushunib yetish uchun ba'zan kitobxondan topqirlikni, mushohadali bo'lishni talab qiladi. Abdulla Sher falsafiy fikrlashni va keng dunyoqarashni shakllantirishga harakat qiladi.

“Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rinn tutadi. Hissiyot dunyoqarashning emotSIONal-ruhiy jihat bo'lib, dunyonи tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot – quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mammunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, o'z yaqinlari va vatani taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ana shular barchasining uyg'unligi dunyonи his etishga olib keladi. Dunyonи his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi”⁵.

Abdulla Sher falsafiy fikrlashda o'zining dunyoqarashiga va fikriga ega bo'lgan faylasuf olimlardan hisoblanadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi haqida adabiyotshunos Shuhrat Rizayev shunday fikr bildiradi. “Axloqshunoslik”, “Estetika” darsliklari shunchaki rus tilidan tarjima qilingan emas. Abdulla Sher o'z estetikasi va o'z axloqshunosligini yaratishga harakat qilgan. U

² Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент. Ўзбекистон, 2002. – Б. 102-103

³ Хумоюн Ақбар. Умр дафтари кўрсатуви. Маданият ва маърифат телеканали. 24.04. 2023.

⁴ Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. Шоирнинг баҳорий сози. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1985. – Б. 77.

⁵ Фалсафий дунёкараш хусусиятлари ва тамойиллари.. Бухоро давлат университети электрон кутубхонаси.

<https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kurs-ishi/item/14520-2021-07-31-06-22-50>, 5 август 2023 йил, соат 7⁰⁰

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining axloqshunoslik, nafosatga doir fikrlarini jamlab, o‘zining yakuniy xulosalariga keladi. Xulosalari asosida axloqshunoslik va nafosat kategoriyalarini sharhlab, izohlab beradi. “Axloqshunoslik”, “Estetika” darsliklari o‘ziga xos ahamiyatlari bo‘lib e’tirof topdi”⁶.

Shoir adabiyot va falsafani mushtarak holda o‘rgangan va o‘rganganlari asnosida poetik asarlar hamda falsafiy asarlar yaratgan. Qadimda ko‘pgina faylasuflar shoir-yozuvchi, aksariyat shoir-yozuvchilar faylasuf bo‘lishgan. Hatto Aflatun ham ijodini she’rdan boshlagani tarixdan ma’lum. Biz sevib o‘qiydigan yozuvchilar Sartr va Kamyular – faylasuf, buyuk rus faylasufi Vladimir Solovyov – shoir... Bizning Sharqda ham shunday an'analar bor: Forobiy, Ibn Sino, Xayyom, Navoiy... Keyinchalik jadidlarimiz Fitrat, Anbar Otin, Abdulla Avloniy.

“Abdulla Sher o‘tgan asrning 60-70 yillarida o‘zbek adabiyotimizda ob-havoni belgilagan adiblarimiz E.Vohidov, A. Oripov, G.Jo‘rayeva, Rauf Parpi, Xayriddin Saloh, Yusuf Shomansur kabilar qatorida adabiyotimizga, ma’naviyatimizga bisot bo‘ladigan asarlar yaratdi. U zamonaning ur-surlariga, urfdagi oqimlariga berilmadi, she’riyatda boshidanoq lirik-falsafiy yo‘nalishni tanladi va umri davomida shu yo‘nalishga sadoqatini ko‘rsatib kelayapti”⁷.

Atoqli adiblarimiz yo‘lidan borgan Abdulla Sher badiiy adabiyotda ham, falsafada ham teng qalam yuritayotgan ijodkordir. Uning ijodiga nazar solsak, she’rlarining aksariyati falsafiy g‘oyalarga yo‘g‘rilgan va mushohadalarga boyadir. Shu bois shoir she’rlarida ko‘pincha borliqqa faylasuf ko‘zi bilan qarayotgan kishining o‘y va fikrlari aks etadi:

Munchalar o‘xshashmiz ey charxi falak,-

Men ham odam shaklin olgan g‘ildirak;

Ne qilay, men-bitta, dunyo ikkidir,

Ikki dunyo aro chopaman halak.

(“Ruboiylar”, 2004)

“Odam shaklin olgan g‘ildirak”- qorishiq (kontigual) ko‘chimning metonimiya turi bo‘lib, “inson”ni ichki bog‘lanish yordamida “g‘ildirak” so‘zi bilan ifodalaydi. G‘ildirakdek inson hayoti ham to‘xtamay aylanadi, umri o‘tib boradi. Inson boqiy va foni y dunyo orasida ekanligini ta’kidlaydi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. Шоирнинг баҳорий сози. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1985. – Б. 77.
2. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 98
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент. Ўзбекистон, 2002. –
4. Б. 102-103
5. Фалсафий дунёқарашиб хусусиятлари ва тамойиллари.. Бухоро давлат университети электрон кутубхонаси. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlish-kursishi/item/14520-2021-07-31-06-22-50>, 5 август 2023 йил,

⁶ Ризаев Ш. Махалла телеканали. 5 август 2023 йил

⁷ Ризаев Ш. Махалла телеканали. 5 август 2023 йил